



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

ABDULLAYEVA FARIDA XAYRULLA QIZI

Nukus davlat pedagogika instituti o'zbek
tili va adabiyoti mutaxassisligi magistranti
abdullayevafarida030@mail.com. +998772922124

ADABIY TA'LIMDA ELEKTRON DASTURLARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Bugungi kunda ta'limda an'anaviy darslardan farqli o'laroq elektron dasturlarga asoslangan darslar ommalashib bormoqda. Bu imkoniyatlar yoshlarimizning savodxonligi, bilimi va aqliy faoliyatini oshiribgina qolmasdan jahon ilm maydonida ham o'z o'rnini topishiga zamin yaratmoqda. Mazkur maqolada ushbu dasturlarning dars jarayonidagi qulayliklari va afzalliklari, o'quvchilarning faolligini oshirishdagi imkoniyatlari haqida so'z yuritiladi.

Tayancha so'zlar: Elektron ta'lim dasturlar, "Joyteka", "Wordwall", "Book Creator".

ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЭЛЕКТРОННЫХ ПРОГРАММ В ЛИТЕРАТУРНОМ ОБРАЗОВАНИИ

АБДУЛЛАЕВА ФАРИДА ХАЙРУЛЛА КИЗИ

Нукусский государственный педагогический институт,
магистр узбекского языка и литературы.

abdullayevafarida030@mail.com. +998772922124

Аннотация. Сегодня в образовании набирают популярность уроки, основанные на электронных программах, в отличие от традиционных. Эти возможности не только повышают грамотность, знания и умственную работоспособность нашей молодежи, но и создают предпосылки для того, чтобы она нашла свое место на мировой научной арене. В данной статье речь пойдет об удобствах и преимуществах этих программ в процессе урока, о возможностях повышения активности учащихся.

Ключевые слова: Программы электронного обучения, “Джойтека,” “Wordwall”, “Book Creator”.

DISTINCTIVE FEATURES OF THE USE OF ELECTRONIC PROGRAMS IN LITERARY EDUCATION

ABDULLAYEVA FARIDA KHAIRULLA KIZI

Nukus State Pedagogical Institute,

Master of Uzbek language and literature.

abdullayevafarida030@mail.com. +998772922124

Annotation. Today, Electronic Program-based classes are becoming more popular in education, as opposed to traditional ones. These opportunities lay the groundwork for our youth to gain a foothold in the world field of science without increasing their literacy, knowledge and mental activity. This article will talk about the convenience and advantages of these programs in the course process, their potential in increasing student activity.

Key words: E-learning programs, “Joyteka”, “Wordwall”, “Book Creator”.

Kirish (Introduction). Kelajak avlodning ta’lim-tarbiyasi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Ularning kommunikativ bilimga ega bo’lishi, innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda tafakkur darajasini oshirishi, dunyo miqyosida o’zini ko’rsata olishlari uchun har bir pedagog mas’uldir. Shunday ekan, o’qituvchilarimiz har tomonlama kasbiy mahoratga ega bo’lishi lozim. Bu borada ta’lim jarayonida elektron ta’lim dasturlari o’qituvchilarimiz uchun keng qulayliklar va imkoniyatlar yaratadi.

Elektron ta’lim dasturlari – raqamlashgan texnologiyalarga asoslangan dasturlar bo’lib, ta’lim tizimida ko’plab ijobiy natijalar qayd etmoqda. “Elektron ta’lim- bu platformalar yoki raqamli muhitlar orqali bilimlarga kirishni targ’ib qiluvchi ta’lim modeli hisoblanadi.”[1]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Elektron ta’lim elektron darsliklar, elektron dasturlar va texnologiyalarni o’z ichiga oladi. Elektron ta’limda dastlab kompyuter yordamida o’qitish boshlangan. Virtual maktablar birinchi AQSh va Kanadada vujudga kelgan. Bugungi kunda yurtimizda ham deyarli barcha oliy ta’lim va o’rta ta’lim maktablari elektron ta’limga asoslanib faoliyat olib bormoqda. Elektron resurslardan foydalanish darslarni o’quvchilar tomondan yaxshi o’zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. 2021-yil N.Sayidova, H.Rustamov, B. Tahirov, F. Norovalar hammuallifligida “Elektron ta’lim resurslarini yaratish metodikasi” o’quv-metodik qo’llanmasi nashrda chiqdi. Ushbu qo’llanmada elektron ta’lim resurslarini yaratishning maqsad va vazifalari, multimediali o’quv videokurslar yaratish texnologiyasi, shuningdek, nazorat qiluvchi dasturlar va dinamik saytlar tizimini yaratish haqida batafsil ma’lumotlarga ega bo’lishimiz mumkin. Elektron

ta'lim texnologiyalari bo'yicha bir qancha ilmiy ishlar olib borilgan. Xususan, elektron resurlar orqali ta'limning rivojlanishi haqida Chirchiq davlat pedagogika instituti dotsenti X.Muratov, ushbu texnologiyalarning ta'limdagi o'rni haqida Yu. Kuralovning bir qancha maqolalari chop etildi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mavzu yuzasidan izlanishlar olib borishda jahon ta'lim tizimida olib borilgan tadqiqotlarga va ilg'or tajribalarga tayanildi. Shuningdek, qiyosiy, tajriba-sinov va struktural tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Murakkablashib borayotgan o'quv jarayonida bunday dasturlardan foydalanish o'qituvchilar bilan birgalikda o'quvchilar uchun ham juda qulay. Shu bilan birga, ularning barcha bilim imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi vositalardir. "Elektron ta'lim resurslari yordamida darslarni tashkil etish

jarayoni, bunda o'quvchilarning olayotgan bilimlarini nafaqat eshitish, balki ko'rish sezgilari orqali ham qabul qilishlari va tushunchalarning g'oya va mazmunini chuqur anglab yetishlariga samarali yordam beradi.[2] "Joyteka", "Worwall", "Book Creator" singari dasturlar bugungi kunda samarali natijalar ko'rsatayotganligi bilan afzaldir.

"Joyteka" dasturidan dars jarayonida bilimlarni mustahkamlash uchun, mustaqil mashg'ulotlarda, shu bilan birga, uyga beriladigan toshiriqlarni yechishda foydalanish mumkin. Bu dasturga har xil turdagi topshiriqlarni joylash mumkin. Ya'ni "Kvest", "Video", "Viktorina", "Test" kabi topshiriq joylaydigan yo'nalishlar mavjud. Masalan, 7-sinf adabiyot darsligida Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asari berilgan bo'lib, ushbu mavzuni "Joyteka" dasturi orqali mustahkamlashni o'quvchilarga topshiriq sifatida beramiz. Ushbu dasturga Google qidiruv tizimi orqali kiriladi va yuqorida berilgan yo'nalishlarning bittasi tanlanadi.

Masalan, "Test"ni tanlaydigan bo'lsak savol yozish joyi chiqadi. Javoblarni esa uch xil usulda berishimiz mumkin. Javoblarni ham kiritamiz va to'g'ri variantni belgilab ketamiz. Bu dasturdan foydalanish uchun video ham joylangan. Biz dasturga kiritgan testlarni yashirish uchun har xil xonalar chiqadi va ulardan bittasini tanlaymiz.



Ushbu bir-biridan ajoyib xonalarga testlarni yashiramiz. Tayyor bo‘lgach, uning havolasini yoki QR-kodini yuklab olishimiz mumkin. Dasturning afzalligi shundaki, o‘quvchilar ularni yechish uchun o‘z ism familiyalari bilan dasturga kirishadi, o‘qituvchi esa bevosita ular to‘plagan ballni nazorat qila oladi. Bu dastur foydalanish uchun juda qulay va oson hisoblanadi. Ayniqsa, har xil xonalar dizayni, ularning rang barangligi, xonalardagi buyumlar orqasiga va jihozlar ichiga yashiringan savollar o‘quvchilarining topshiriqni bajarishga bo‘lgan qiziqishini tubdan oshiradi. Barcha testlar to‘liq va to‘g‘ri yechilsagina xonadagi eshik ochiladi. Eshikning tezroq ochilishi uchun o‘quvchilar bilimli va faol bo‘lishga, mavzuni yaxshi o‘zlashtirishga intiladi. Bu dasturni jamoaviy hamda yakka holda bajarish mumkin. Har ikkala holatda ham o‘z samarasini ko‘rsata oladi. “Nazoratlarni elektron tarzda olish uchun bir qator maxsus dasturlardan foydalanilmoqda. Bu dasturlarning asosiy yutuqlaridan biri test natijalari bo‘yicha hisobotni avtomatik ravishda tayyorlashidir. Bir so‘z bilan aytganda, elektron ta‘limdan foydalanish ta‘lim olishning zamonaviy va samarali usullaridan ekanligi yaqqol o‘z isbotini topmoqda[3:142].

“Joyteka” dasturining “Video” yo‘nalishini dars jarayonida qo‘llaydigan bo‘lsak, o‘quvchilarning faolligi yanada oshadi. Ya‘ni buni yozuvchining hayoti va ijodi yoki biron bir asarini o‘rgatishda qo‘llasak, ijobiy natijalarga erishamiz. Masalan,



7-sinf adabiyot darsligida Ernest Hemingueyning hayoti, shu bilan birga, “Chol va dengiz” asari berilgan. Yozuvchining hayoti va ijodi bo‘yicha video qo‘yiladi va undagi ma‘lumotlardan beshta savol tuzgan bo‘lsak, videoning beshta joyida vaqtiga qarab savollar joylashtiriladi. Savol vaqti kelganda video to‘xtab qoladi, o‘quvchilar savolning javobini

topgach, video davom etadi. O‘quvchilardan o‘ta sinchkovlik va bilim talab qilindi. Bu yo‘nalishning afzalligi o‘quvchilar yozuvchi haqida ma‘lumotga ega bo‘lishi bilan birga u haqidagi savollarga javob topib ketadi. Videoni


davomini ko‘rish uchun ham ular diqqatli bo‘lishga intiladi. Savollar videoda aytilgan ma‘lumotlardan tuzilsa, o‘quvchilarda xotirada saqlash qobiliyati ham mustahkamlanadi.

“Wordwall” dasturi ham juda katta imkoniyatlar majmuyidir. Bu dasturda har xil usulda o‘quvchilarga topshiriqlar, krossvordlar, so‘z o‘yinlari tuzish mumkin. Dasturda o‘quvchilarning savodxonligini va darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish hamda mavzuni chuqurroq o‘rgatish uchun yigirmadan ortiq o‘yin shaklidagi topshiriqlar jamlangan.

Masalan, soʻzlarning oʻrnini almashtirish oʻyinini sheʼriy asarlarni oʻrgatishda qoʻllanilsa, mavzuni oʻzlashtirish yanada osonlashadi. 7-sinf adabiot darsligida Zulfiya hayoti va ijodidan namunalar keltirilgan. Shoiraning “Bahor keldi seni soʻroqlab” sheʼrini ushbu usul orqali oʻrganamiz. Sheʼrda keltirilgan har bir misrani dasturga kiritamiz va dasturning oʻzi soʻzlarning oʻrnini almashtirib qoʻyadi. Oʻquvchilar esa belgilangan vaqtda soʻzlarni toʻgʻri joylashtirishi kerak boʻladi. Oʻqituvchi topshiriqni tayyorlab boʻlgach, uning havolasini oʻquvchilarga beradi. Har bir oʻquvchi ism va familiyasi orqali dasturga kirib, topshiriqni bajaradi va ularni toʻplagan natijasi dasturda saqlanib qoladi. Bu esa oʻz navbatida oʻqituvchi uchun ularni baholashda qulay imkoniyat yaratadi. Quyidagi havola orqali topshiriqni bajarish mumkin: <https://wordwall.net/play/82497/293/287>.

“Book Creator” dasturi juda katta imkoniyatlarni oʻzida mujassam qilgan elektron baza hisoblanadi. Ushbu dastur orqali elektron kitob yaratiladi va unga video, audio, rasmlar, pdf shaklidagi maʼlumotlar, interaktiv topshiriqlar, shuningdek, QR-kod va havolalarni joylash mumkin. Dastur darsni tashkil qilishda, mavzuni mustahkamlashda, har xil qiziqarli topshiriqlar bajarishda ancha samaralidir. “Dastur yordamida pedagogik tarqatma materiallar va ular ustida turli qoʻshimcha amallar bajarish imkoni beradi”[4-85]. Eng asosiysi, butun bir fan yoki bitta mavzu doirasida ham kitob yaratish mumkin. Mavzuga aloqador videolar va audiolar ham oʻquvchining qiziqishini oshiribgina qolmasdan, ularda xotirada qolish qobiliyatini ham shakllantiradi. Bu platformada ham oʻquvchilarni avtomatik tarzda baholash imkoniyati mavjud. Yaʼni har bir oʻquvchi bajargan topshiriqlar natijasi dasturda saqlanib qoladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Elektron taʼlim dasturlari oʻquvchilarning qiziqishlarini oshirish, har bir mavzuni samarali tarzda oʻrganish va olingan bilim va tushunchalarni mustahkamlashda yaqindan yordam beradi. Bilimning asosini tajriba va amaliyot tashkil etadi. Yuqoridagi kabi dasturlar esa shu jihatdan ham oʻz ustunligiga ega. Chunki oʻquvchilar bu dasturlar orqali nazariy bilimlarini amaliy jihatdan mustahkamlagan holda dars jarayonida yanada faol boʻlishga harakat qiladi. Oʻqituvchining raqamli texnologiyalardan unumli foydalana olishi butun sinfni faollikka undashi bilan birga taʼlim sifatini tubdan yaxshilashga xizmat qiladi. Tezkor rivojlanayotgan davrda elektron dasturlar, elektron darslik va qoʻllanmalar, har xil taʼlim resurslarining yaratilib taʼlimga joriy qilinishi, ilmfan taraqqiyoti va taʼlim samarasini oshirishga yordam beradi.



ADABIYOTLAR:

1. <https://uz.warbletoncouncil.org/e-learning-3220>

2. Hamidov Y. Ta'lim samaradorligini oshirishda elektron resurslarning o'rni.

Текст: непосредственный // Молодой ученый.

3. Kuralov Y. A., Makhmudova, D. M. (2020). METHODOLOGY OF DEVELOPING CREATIVE COMPETENCE IN STUDENTS WITH PROBLEMATIC EDUCATION. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 4, 2020, Part II ISSN 2056-5852, 142.

4. Jurayev. A. X. Ta'lim tizimiga pedagogik dasturiy vositalarni joriy etish afzalliklari. O'zMU xabarlar jurnali. 1/1-son 2020-y. 85-b.

5. <https://joyteka.com/ru>

6. <https://wordwall.net/ru>

7. <https://bookcreator.com/>